

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2026-yil maxsus son

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI)

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS)



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, X. Yuldasheva, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 7-iyulda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog'i: 24,2

Adadi: 100. Buyurtma: № 77.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririyat-nashriyot markazi direktori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Y. Kanyazov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi

J. Tashkulov – Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

U. To'xtasheva – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

M. Yasan – Balikesir universiteti Huquq fakulteti professori (Turkiya)

S. Ma'mun – Islam Negeri universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

I. Ergashev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. Raximov – Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot markazi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

I. Djurayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

F. Maxmudov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Kadirova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho'basi professor v.b., yuridik fanlar doktori

I. Yakubova – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho'basi professor v.b., yuridik fanlar doktori

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi professori, pedagogika fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев, Е. Ярмолик, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Х. Юлдашева, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047, Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

№ 174625, от 29.11.2023.
Журнал передан в типографию
07.07.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 24,2 Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 77.

Лицензия типографии

№ 174626, от 29.11.2023.
Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – ректор Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – директор Редакционно-издательского центра Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Е. Каньязов – директор Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, кандидат юридических наук

Ж. Ташкулов – заведующий отделом Института государства и права Академии наук, доктор юридических наук, профессор

У. Тухташева – заместитель директора Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

М. Ясан – профессор юридического факультета Университета Балыкесир (Турция)

С. Маъмун – преподаватель Исламского государственного университета (Индонезия)

Ш. Асадов – начальник управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

И. Эргашев – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ж. Нематов – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

М. Аминжонов – доцент кафедры организации контроля за исполнением законодательства Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук

М. Рахимов – начальник Исследовательского центра Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

И. Джураев – профессор сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

О. Нарзуллаев – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ф. Махмудов – заместитель директора Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, доктор юридических наук, доцент

М. Кадирова – и.о. профессора сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

И. Якубова – и.о. профессора сектора права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Мухамеджанов – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Ниязова – профессор сектора узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат педагогических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Kh. Yuldasheva, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 07.07.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 24,2.

Units: 100. Order: № 77.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

B. Khodjaev – Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Director of the Publishing and Editorial Center of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

Y. Kanyazov – Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Candidate of Legal Sciences

J. Tashkulov – Head of the Department of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences, Doctor of Law, Professor

U. Tukhtasheva – Deputy Director of the Anti-Corruption Agency, Doctor of Law, Professor

M. Yasan – Professor of the Faculty of Law, Balikesir University (Turkey)

S. Ma'mun – Lecturer at Universitas Islam Negeri (Indonesia)

Sh. Asadov – Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

I. Ergashev – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

J. Nematov – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

M. Aminjonova – Associate Professor of the Department of Organization of Control over the Execution of Legislation of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

M. Rakhimov – Head of the Research Center of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

I. Djuraev – Professor of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

O. Narzullaev – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

F. Makhmudov – Deputy Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor

M. Kadirova – Acting Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Yakubova – Acting Professor of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Mukhamedjanov – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Niyazova – Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 11 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Huquq shakllari (manbalari)ning rivojlanish tendensiyalari: tarixiy-nazariy yondashuv
- 22 **SHOKIROVA-INOMJONOVA MASHXURAXON G'AYRATJON QIZI**
Adolat va ijtimoiy adolat prinsiplarining farqli jihatlari: nazariy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 31 **YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
Mualliflik huquqida kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishni takomillashtirishning milliy va xalqaro mexanizmlari
- 41 **MAMANAZAROV SARDOR SHUXRATOVICH**
Biotexnologiya sohasidagi litsenziya shartnomalari: milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari
- 53 **TO'YCHIYEV FARRUX ABDUMAJITOVICH**
Arbitraj nizolarining uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirilishi tizimining mohiyati: adolatga erishish vositasimi yoki nizolarni tijoratlashtirish?
- 63 **ASKAROV JALOLIDDIN TO'YCHIYEVICH, OQBOYEVA MUBORAK MAXAMADAMIN QIZI**
Farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini takomillashtirish masalalari
- 73 **RAXIMOVA DILOROM XAITBAYEVNA**
Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulk tushunchasi, mazmuni va turlari
- 82 **BEG'AMOV MUXRIDDIN KAMOLIDDIN O'G'LI**
Ta'lim davlat-xususiy sheriklik shartnomalarida sifat majburiyatlari: huquqiy kolliziya va adjudikatsiya masalalari
- 90 **HOSHIMOVA YULDUZXON OLIMJONOVNA**
Hammaga ma'lum tovar belgilari muhofazasi: O'zbekiston qonunchiligining TRIPS standartlariga muvofiqligi
- 99 **ISAYEV MIRJON ZAMIROVICH**
O'zbekistonda intellektual mulk himoyasining huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 109 **NODIROV MUZAFFAR AXMADOVICH, USMONOV IBROHIM ALISHER O'G'LI**
O'zbekistonda kiberjinoyatlarning rivojlanishi hamda ularni tergov qilish muammolari
- 121 **FAYZULLAYEV ASLBK ULUG'BEK O'G'LI**
Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 133 **RAXIMOVA ULZANA XAMIDULLAYEVNA**
Xorijiy davlatlar jinoyat protsessida hay'at a'zolari sudi instituti va uni O'zbekiston Respublikasida joriy etish istiqbollari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

143 **YUNUSOV XAYDARALI MURATOVICH**

Yangi O'zbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari

155 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA, TURSUNMURODOV KOMRON TURGUN O'G'LI**

Davlat suvereniteti va yuqori balandlikdagi platforma stansiyalarining (HAPS) huquqiy rejimi

166 **QAHRAMONOVA AZIZA ULUG'BEK QIZI**

Zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro-huquqiy mexanizmlar hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari

176 **ABDUSALOMOVA DURDONAXON G'ANIYON QIZI**

Transchegaraviy ta'sir turlari va ularning xalqaro huquqdagi normativ-huquqiy tasnifi

184 **SHUKUROVA KAMILLA TIMUROVNA**

JSTning umumiy istisnalaridagi "zarurat" testi: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun isbotlash yukining asimmetriyasi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

194 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**

Xitoy Xalq Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning institutsional-huquqiy modeli:
O'zbekiston Respublikasi uchun moslashtirish imkoniyatlari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 11 **АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА**
Тенденции развития форм (источников) права: историко-теоретический подход
- 22 **ШОКИРОВА-ИНОМЖОНОВА МАШХУРАХОН ГАЙРАТЖОН КИЗИ**
Отличительные особенности принципов справедливости и социальной справедливости: теоретико-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 31 **ЯКУБОВА ИРОДА БАХРАМОВНА**
Национальные и международные механизмы совершенствования правовой охраны компьютерных программ в авторском праве
- 41 **МАМАНАЗАРОВ САРДОР ШУХРАТОВИЧ**
Лицензионные договоры в сфере биотехнологий: вопросы совершенствования национального законодательства
- 53 **ТУЙЧИЕВ ФАРРУХ АБДУМАЖИТОВИЧ**
Сущность системы финансирования арбитражных споров третьими лицами: средство обеспечения доступа к правосудию или коммерциализация споров?
- 63 **АСКАРОВ ЖАЛОЛИДДИН ТУЙЧИЕВИЧ, ОКБОВА МУБОРАК МАХАМАДАМИН КИЗИ**
Вопросы совершенствования института гражданско-правовой ответственности за нарушение законодательства о фармацевтической деятельности
- 73 **РАХИМОВА ДИЛОРМ ХАЙТБАЕВНА**
Понятие, содержание и виды бенефициарной собственности в гражданском праве
- 82 **БЕГАМОВ МУХРИДДИН КАМОЛИДДИН УГЛИ**
Обязательства по обеспечению качества в соглашениях о государственно-частном партнёрстве в сфере образования: вопросы правовых коллизий и адjudикации
- 90 **ХОШИМОВА ЮЛДУЗХОН ОЛИМЖОНОВНА**
Охрана общеизвестных товарных знаков: соответствие законодательства Узбекистана стандартам соглашения ТРИПС
- 99 **ИСАЕВ МИРЖОН ЗАМИРОВИЧ**
Развитие правовых механизмов защиты интеллектуальной собственности в Узбекистане

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 109 **НОДИРОВ МУЗАФФАР АХМАДОВИЧ, УСМОНОВ ИБРОХИМ АЛИШЕР УГЛИ**
Развитие киберпреступности в Узбекистане и проблемы её расследования
- 121 **ФАЙЗУЛЛАЕВ АСЛБЕК УЛУГБЕК УГЛИ**
Отягчающие ответственность признаки преступления, связанного с умышленным уничтожением или повреждением имущества

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 133 **РАХИМОВА УЛЬЗАНА ХАМИДУЛЛАЕВНА**
Институт суда присяжных в уголовном судопроизводстве зарубежных стран и перспективы его внедрения в Республике Узбекистан

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО143 **ЮНУСОВ ХАЙДАРАЛИ МУРАТОВИЧ**

Международно-правовые инициативы Нового Узбекистана

155 **РАСБЕРГЕНОВА САРБИНАЗ АЛИШЕРОВНА, ТУРСУНМУРОДОВ КОМРОН ТУРГУН УГЛИ**

Суверенитет государства и правовой режим высотных платформенных станций (HAPS)

166 **КАХРАМОНОВА АЗИЗА УЛУГБЕК КИЗИ**

Международно-правовые механизмы защиты прав детей, пострадавших от насилия, и вопросы совершенствования национального законодательства

176 **АБДУСАЛОМОВА ДУРДОНАХОН ГАНИЖОН КИЗИ**

Виды трансграничного воздействия и их нормативно-правовая классификация в международном праве

184 **ШУКУРОВА КАМИЛЛА ТИМУРОВНА**

Тест «необходимости» в общих исключениях ВТО: асимметрия бремени доказывания для развивающихся стран

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ194 **ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ**

Институционально-правовая модель обеспечения общественной безопасности Китайской Народной Республики: возможности адаптации для Республики Узбекистан

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 11 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**
Trends in the development of forms (sources) of law: a historical and theoretical approach
- 22 **SHOKIROVA-INOMJONOVA MASHKHURAKHON GAYRATJON KIZI**
Different aspects of the principles of justice and social justice: theoretical and legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 31 **YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
National and international mechanisms for improving the legal protection of computer programs in copyright
- 41 **MAMANAZAROV SARDOR SHUKHRATOVICH**
License agreements in the biotechnology sector: issues of improving national legislation
- 53 **TUYCHIEV FARRUH ABDUMAJITOVICH**
Third-party funding of arbitral disputes: a means of access to justice or the commercialization of disputes?
- 63 **ASKAROV JALOLIDDIN TUYCHIEVICH, OQBOEVA MUBORAK MAKHAMADAMIN KIZI**
Issues of improving the institute of civil-legal liability for violation of legislation on pharmaceutical activities
- 73 **RAKHIMOVA DILOROM KHAITBAYEVNA**
The concept, essence, and types of beneficial ownership in civil law
- 82 **BEGAMOV MUKHRIDDIN KAMOLIDDIN UGLI**
Quality obligations in education PPP contracts: legal collisions and adjudication issues
- 90 **HOSHIMOVA YULDUZKHON OLIMJONOVNA**
Protection of known trademarks: compliance of Uzbekistan's legislation with TRIPS standards
- 99 **ISAEV MIRJON ZAMIROVICH**
Development of legal mechanisms for the protection of intellectual property in Uzbekistan

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 109 **NODIROV MUZAFFAR AKHMADOVICH, USMONOV IBROHIM ALISHER UGLI**
The development of cybercrime in Uzbekistan and problems of their investigation
- 121 **FAYZULLAEV ASLBEK ULUGBEK UGLI**
Aggravating circumstances of the crime of intentional destruction or damage to property

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 133 **RAKHIMOVA ULZANA KHAMIDULLAEVNA**
The institution of jury trial in criminal proceedings of foreign countries and prospects for its implementation in the Republic of Uzbekistan

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 143 **YUNUSOV KHAYDARALI MURATOVICH**
International legal initiatives of New Uzbekistan
- 155 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA, TURSUNMURODOV KOMRON TURGUN UGLI**
State sovereignty and the legal regime of high-altitude platform stations (HAPS)

166 **KAHRAMONOVA AZIZA ULUGBEK KIZI**

International legal mechanisms for the protection of the rights of children victims of violence and issues of improving national legislation

176 **ABDUSALOMOVA DURDONAKHON GANIJON KIZI**

Types of transboundary impacts and their normative-legal classification in international law

184 **SHUKUROVA KAMILLA TIMUROVNA**

The “necessity” test in WTO general exceptions: asymmetry of the burden of proof for developing states

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY194 **KHUJAMBERDIEV FARRUKH KOMILOVICH**

The institutional and legal model for ensuring public security in the People’s Republic of China: opportunities for adaptation in the Republic of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 12.05.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 04.06.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 07.07.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2026.10.SI./EHTR1932>

UDC: 341(045)(575.1)

ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN BOLALARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA XALQARO-HUQUQIY MEKANIZMLAR HAMDA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qahramonova Aziza Ulug'bek qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-8677-8595>

e-mail: azizakhon8800@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro-huquqiy mexanizmlar, ularning mazmuni, amaliy ahamiyati hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy, e'tiborsizlik, ekspluatatsiya va bulling kabi shakllari yoritilib, ularning bolaning shaxsi, ruhiy holati va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Lanzarote konvensiyasi, Pekin qoidalari hamda boshqa universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy hujjatlarning jabrlangan bolalarni himoya qilishdagi o'rni o'rganiladi. Maqolada bolaning eng ustun manfaatlari, qayta viktimizatsiyaning oldini olish, bolalarga do'stona odil sudlov, reabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tizimli, huquqiy va qiyosiy-huquqiy tahlil asosida xalqaro standartlarning O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilinishi, amaliyotdagi mavjud muammolar va institutsional bo'shliqlar baholanadi. Xorijiy tajriba, xususan "Barnaxus" modeli va bolalar advokatlik markazlari faoliyati tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni kompleks himoya qilish tizimini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: bola, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, bolalarga nisbatan do'stona bo'lgan sudlov, bolaning eng ustun manfaatlari, xalqaro-huquqiy mexanizmlar, konvensiya, "Barnaxus" modeli

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ДЕТЕЙ, ПОСТРАДАВШИХ ОТ НАСИЛИЯ, И ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Кахрамонова Азиза Улугбек кизи,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье проводится научный анализ международно-правовых механизмов защиты прав детей, пострадавших от насилия, их содержания, практического значения, а также вопросов совершенствования национального законодательства. В исследовании освещаются такие формы насилия в отношении детей, как физическое, психологическое и сексуальное насилие, пренебрежение нуждами ребёнка, эксплуатация и буллинг, а также раскрывается их влияние на личность ребёнка, его психическое состояние и социальное развитие. Кроме того, изучается роль Конвенции о правах ребёнка, Лансаротской конвенции, Пекинских правил и иных универсальных и региональных международно-правовых актов в защите детей, пострадавших от насилия. Особое

внимание уделяется принципу наилучших интересов ребёнка, предупреждению повторной виктимизации, дружественному к ребёнку правосудию, а также механизмам реабилитации и реинтеграции. На основе системного, правового и сравнительно-правового анализа оцениваются вопросы имплементации международных стандартов в законодательство Республики Узбекистан, существующие проблемы правоприменительной практики и институциональные пробелы. Анализируется зарубежный опыт, в частности модель «Барнахус» и деятельность центров адвокации интересов детей, а также рассматриваются возможности их адаптации к условиям Узбекистана. По итогам исследования выдвинуты предложения и рекомендации, направленные на гармонизацию национального законодательства с международными стандартами, укрепление межведомственного взаимодействия и развитие системы комплексной защиты детей, пострадавших от насилия.

Ключевые слова: ребёнок, насилие в отношении детей, дружественное к ребёнку правосудие, наилучшие интересы ребёнка, международно-правовые механизмы, конвенция, модель «Барнахус»

INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS FOR THE PROTECTION OF THE RIGHTS OF CHILDREN VICTIMS OF VIOLENCE AND ISSUES OF IMPROVING NATIONAL LEGISLATION

Kahramonova Aziza Ulugbek kizi,

Basic Doctoral Student at Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a scientific analysis of international legal mechanisms for protecting the rights of child victims of violence, their content, practical significance, and issues of improving national legislation. The study highlights forms of violence against children, such as physical, mental, sexual, neglect, exploitation, and bullying, and reveals their impact on the child's personality, mental state, and social development. The role of the Convention on the Rights of the Child, the Lanzarote Convention, the Beijing Rules, and other universal and regional international legal instruments in protecting child victims will also be studied. The article focuses on the best interests of the child, the prevention of re-victimization, child-friendly justice, and mechanisms for rehabilitation and reintegration. Based on systematic, legal, and comparative-legal analysis, the implementation of international standards into Uzbekistan's legislation, existing problems in practice, and institutional gaps will be assessed. Foreign experience will be analyzed, in particular, the Barnahus model and the activities of children's advocacy centers and the possibilities of adapting them to the conditions of Uzbekistan will be considered. At the end of the study, proposals and recommendations are put forward aimed at harmonizing national legislation with international standards, strengthening interagency cooperation, and developing a system for the comprehensive protection of children who have suffered from violence.

Keywords: child, violence against children, child-friendly judicial proceedings, best interests of the child, international legal mechanisms, convention, The Barnahus model

Kirish

Hozirgi global rivojlanish sharoitida bolalarga nisbatan zo'ravonlik inson huquqlari tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammo nafaqat alohida davlatlar doirasida, balki butun xalqaro jamiyat miqyosida jiddiy e'tibor talab etadi. Bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadigan zo'ravonlik holatlari ularning fundamental huquqlarini buzadi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soladi. 2025-yil davomida dunyo bo'yicha qariyb 1 milliard bola jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'ravonlik yoki e'tiborsizlik qurboni bo'lganligi bu muammoning qay darajada e'tiborga molikli-

gidan dalolat beradi (World Health Organization, 2026). Mazkur global tendensiya O'zbekiston sharoitida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili nomiga 2025-yilning dastlabki 6 oyi davomida 885 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 47 foizga ko'pdir (Representative of the Oliy Majlis on Children's Rights, 2025). Ushbu ko'rsatkich bolalar huquqlarini himoya qilish, xususan, ularga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish masalasi milliy darajada ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalarga nisbatan zo'ravonlik ko'p hollarda yashirin xarakterga ega bo'lib, u oilada,

ta'lim muassasalarida yoki boshqa ijtimoiy muhitlarda sodir etiladi. Shu bois ushbu muammoni samarali hal etish uchun kompleks yondashuv, xususan, xalqaro-huquqiy mexanizmlar va milliy qonunchilikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi (Volkova & Balashova, 2004, pp. 2-3).

Mazkur maqolaning maqsadi – zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilish bo'yicha mavjud xalqaro-huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) kabi shakllarni o'z ichiga oladi (Republic of Uzbekistan, 2024). Shaklidan qat'i nazar, zo'ravonlik bolalarning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi va ko'pincha uzoq mudдатli salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, zo'ravonlik bolalar ruhiyatida chuqur iz qoldirib, ularning kelajakdagi ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir qilishi aniqlangan. Y. Volkova va T. Balashovalar ta'kidlab o'tganidek, zo'ravonlikka uchragan bolalar ko'pincha ikki yo'ldan birini tanlaydi: ular passiv, ijtimoiy moslashuvdan chetda qolgan shaxsga aylanadi, yoki aksincha, agressiv xatti-harakatlarni namoyon eta boshlaydi (Volkova & Balashova, 2004). Bu esa o'z navbatida zo'ravonlikning nafaqat individual, balki ijtimoiy xavfli hodisa ekanligini ko'rsatadi. Biz bu fikrga mutlaqo qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, zo'ravonlikdan jabrlangan bola aslida faqat bir martalik huquqbuzarlik qurboni emas, balki kelajakda ijtimoiy muhit bilan sog'lom munosabat o'rnatishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan shaxsga aylanadi. Bunday bolalarda ishonchsizlik, qo'rquv, o'zini past baholash kabi psixologik holatlar shakllanib, ular jamiyatdan chetlanish yoki aksincha, tajovuzkor xulq orqali o'zini ifodalashga moyil bo'ladi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro-huquqiy mexanizmlar hamda ularning O'zbekiston milliy qonunchiligida aks etishi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, formal-yuridik tahlil, qiyosiy-huquqiy hamda

hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot bir necha izchil bosqichda olib borildi. Dastlab bolalarga nisbatan zo'ravonlik, jabrlangan bolaning huquqiy maqomi, bolaning eng ustun manfaatlari, qayta viktimizatsiyaning oldini olish, bolalarga do'stona odil sudlov hamda reabilitatsiya va reintegratsiya masalalariga oid nazariy-huquqiy yondashuvlar o'rganildi. Keyingi bosqichda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Lanzarote konvensiyasi, Pekin qoidalari, BMT va Yevropa Kengashi hujjatlari kabi xalqaro standartlar tahlil qilindi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasining bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari xalqaro talablar bilan qiyosiy o'rganildi. Yakuniy bosqichda esa "Barnaxus" modeli va bolalar advokatlik markazlari tajribasi tahlil qilinib, ularning ayrim elementlarini milliy tizimga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqot doirasida jami 16 ta asosiy manba tahlil qilindi. Ular xalqaro shartnomalar va standartlar, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning rasmiy materiallari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlardan iborat. Manbalarni tanlashda ularning tadqiqot mavzusiga bevosita aloqadorligi, rasmiy yoki ilmiy ishonchliligi, huquqiy ahamiyati va dolzarbligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Qo'llanilgan metodlar zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilish tizimini huquqiy, institutsional va protsessual jihatdan kompleks baholash imkonini berdi. Xususan, formal-yuridik metod xalqaro va milliy normalarning mazmunini aniqlashga; qiyosiy-huquqiy metod esa xalqaro standartlar, xorijiy tajriba va O'zbekiston qonunchiligi o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni ochib berishga xizmat qildi. Natijada zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilish xalqaro huquqda kompleks va ko'p bosqichli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar, avvalo, bolalarning huquqlarini universal darajada e'tirof etish, ularni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish,

jabrlangan bolalarga rehabilitatsiya va reintegratsiya choralarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalar hamda institutsional tuzilmalar faoliyatida namoyon bo'ladi.

Tahlil davomida zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilishda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya asosiy xalqaro-huquqiy hujjat sifatida muhim o'rin tutishi aniqlandi. Mazkur konvensiyada mustahkamlangan "bolaning eng ustun manfaatlari" prinsipi bolalar ishtirokidagi barcha huquqiy, ma'muriy va sud jarayonlarida ustuvor mezon bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlashda ushbu prinsip ularning qayta ruhiy jarohatlantirishining oldini olish, xavfsiz muhit yaratish, bolaning fikrini inobatga olish hamda psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni talab etadi.

Shuningdek, tadqiqotda bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan Lanzarote konvensiyasi xalqaro-huquqiy mexanizmlar tizimida alohida ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Mazkur konvensiya bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning turli shakllarini jinoyat sifatida belgilash, jabrlanuvchi bolalarni tergov va sud jarayonida qayta viktimizatsiyadan himoya qilish, shuningdek, ularga kompleks yordam ko'rsatish bo'yicha muhim standartlarni belgilaydi. O'zbekistonning ushbu konvensiyaga qo'shilishi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish hamda jabrlangan bolalarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlar tajribasida qo'llanilayotgan "Barnaxus" modeli zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlashda samarali integratsiyalashgan yondashuv sifatida baholandi (Barnahus, 2025). Ushbu modelda tergov, tibbiy ko'rik, psixologik yordam, ijtimoiy himoya va sudlov bilan bog'liq harakatlar bola uchun qulay muhitda muvofiqlashtiriladi. Mazkur tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish jabrlangan bolalarni himoya qilishda idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va ularning qayta viktimizatsiyaga uchrashining oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida milliy qonunchilik va amaliyotda ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, zo'ravonlik holatlarini aniqlash va qayd etish tizimining yetarli darajada samarali emasligi, jabrlangan bolalar

bilan ishlashda kompleks yondashuvning to'liq shakllanmagani hamda davlat organlari o'rtasida koordinatsiya darajasining yetarli emasligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, multidisiplinar yondashuvni joriy etish hamda bolalar uchun do'stona odil sudlov tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha xalqaro-huquqiy tizim keng qamrovli va ko'p bosqichli mexanizmlardan iborat. Ushbu mexanizmlar, avvalo, bolalarning huquqlarini universal darajada e'tirof etish va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro shartnomalar va institutlar orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro-huquqiy mexanizmlarni ikkita asosiy guruhga (shartnomaviy va institutsional) ajratib tahlil qilsak bo'ladi.

Birinchisi, shartnomaviy mexanizmlar deganda universal va mintaqaviy xarakterga ega bo'lgan shartnomalar, shu jumladan, 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilishda kompleks va tizimli yondashuvni belgilab bergan fundamental xalqaro-huquqiy hujjat hisoblandi. Konvensiyaning bu boradagi muhim jihatlaridan biri shundaki, unda xalqaro huquq doirasida bolalarni himoya qilishning asosiy tamoyili – bolaning eng ustun manfaatlari (the best interests of the child) eng to'liq va universal darajada mustahkamlagan. Ushbu prinsipga ko'ra, bolalarga taalluqli barcha harakatlarda, ijtimoiy himoya qilish muassasalari, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning ustun manfaatlari birinchi navbatda e'tiborga olinishi shartligini nazarda tutadi (United Nations, 1989).

Mazkur prinsipning amaliy mazmunini yanada chuqurroq tushunishda ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan strukturaviy va jarayonga yo'naltirilgan yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, "bolaning eng ustun manfaatlari" prinsipini faqat tayyor huquqiy formula sifatida emas, balki bolaning hayotiy holati, ehtiyojlari va huquqiy maqomidan kelib chiqib aniqlanishi lozim bo'lgan dinamik tushuncha

sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, strukturaliy yondashuv bolaning manfaatlarini ta'minlash uchun zarur institutsional shart-sharoitlar – malakali mutaxassislar, xavfsiz muhit, aniq tartib-taomillar va himoya mexanizmlarining mavjudligini nazarda tutsa, jarayonga yo'naltirilgan yondashuv qaror qabul qilish jarayonida bolaning fikri, yoshi, rivojlanish darajasi, ruhiy holati va individual ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi (Petersson et al., 2025). Ushbu yondashuv zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar huquqlarini himoya qilishda, ayniqsa, bolalarga nisbatan odil sudlovni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday vaziyatlarda bolaning eng ustun manfaatlari faqat uning huquqlarini formal tan olish yoki aybdorni javobgarlikka tortish bilan cheklanmaydi; aksincha, tergov va sud jarayonida bolaning qayta ruhiy jarohatlanishining oldini olish, uning ovozi eshitish, xavfsiz va ishonchli muhit yaratish, shuningdek, psixologik, tibbiy va ijtimoiy tiklanishini ta'minlashni ham qamrab oladi. Shu bois "bolaning eng ustun manfaatlari" prinsipi zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar ishtirokidagi har qanday protsessual harakatda nafaqat umumiy huquqiy mezon, balki amaliy qaror qabul qilishning insonparvar va individual yo'naltirilgan mezon sifatida qo'llanilishi lozim.

Mazkur tamoyilning o'ziga xos jihati shundaki, u bir vaqtning o'zida uchta funktsiyani bajaradi: birinchidan, u bolaning subyektiv huquqi sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchidan, huquqiy normalarni talqin qilishda asosiy tamoyil vazifasini bajaradi; uchinchi esa qaror qabul qilish jarayonida protsessual qoida sifatida qo'llaniladi (Tobin, 2019, p. 7). Bundan tashqari, bolalarning ijtimoiy zaifligi va siyosiy ta'sir imkoniyatlarining cheklanganligi mazkur prinsipni qo'llashda alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bolalar ko'pincha o'z manfaatlarini mustaqil ravishda himoya qila olmaydi, shu sababli ularning manfaatlari sudlar va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan faol himoya qilinishi zarur.

Shuningdek, konvensiyaning 19-moddasida davlatlar bolalarni barcha turdagi zo'ravonlikdan himoya qilish uchun zarur qonunchilik, ma'muriy va ijtimoiy choralarni ko'rish shartligi belgilangan bo'lsa, 39-moddasida esa zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning rehabilitatsiyasi va reintegratsiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Unga ko'ra, bunday bolalar jismoniy va psixologik tiklanish hamda jamiyatga qayta moslashish huquqiga ega bo'lib, bu jarayon bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish asosida amalga oshirilishi lozim. Ya'ni konvensiya ushbu modda bilan davlatlarga zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularni har taraflama tiklanib jamiyatga qo'shib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyatini yuklaydi.

Bundan tashqari ushbu konvensiyaga qo'shimcha protokollar: Bolalar savdosi, bolalar fohishaligi va pornografiyasiga qarshi protokol, Qurolli mojaralarda bolalar ishtirokiga qarshi protokol va Individual murojaatlar bo'yicha protokol (United Nations General Assembly, 2000a, 2000b, 2011); Qiynoqlarga qarshi konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi universal hujjatlar va Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi Lanzarote konvensiyasi, Yevropa ijtimoiy xartiyasi, Bolalar huquqlariga oid maxsus amerika davlatlararo standartlar, Afrika bolalar huquqlari va farovonligi to'g'risidagi xartiya kabi mintaqaviy shartnomalar zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi (Council of Europe, 1996, 2007; Organization of African Unity, 1990; United Nations, 1984).

Shulardan 2007-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Lanzarote konvensiyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu konvensiya bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va jinsiy zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan Yevropa Kengashining xalqaro huquqiy majburiy hujjatidir. Bu hujjat bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning har qanday shaklini jinoyat deb tasniflashni talab qiladigan birinchi xalqaro shartnomadir. Uning asosiy yo'nalishlari:

- jinsiy zo'ravonlik, bolalar prostitutsiyasi, pornografiyasi va bolalarni jinsiy maqsadlarda o'ziga og'dirish (grooming) uchun jinoiy javobgarlikni belgilash;
- bolalar bilan ishlovchi kadrlarni saralash (sudlanmaganlikni tekshirish), bolalarni o'z huquqlari haqida xabardor qilish;
- jabrlanuvchi bolalarning tergov jarayonida qayta travma olishining oldini olish (masalan, videotasvirga olish orqali so'roq sonini kamaytirish);

– jinoyatchilarni qidirish va jazolashda davlatlararo tezkor ma'lumot almashish hisoblanadi.

Konvensiyaning 1-moddasida jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish konvensiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida keltirilgan (Council of Europe, 2007). Konvensiyaning 4-bobi to'g'ridan to'g'ri zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarning himoya choralari va ularga yordam ko'rsatish masalalariga bag'ishlangan. Lanzarote konvensiyasi jami 48 mamlakat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ular asosan Yevropa Kengashi a'zolari bo'lib, Tunis Yevropa Kengashi a'zosi bo'lmagan davlat sifatida ratifikatsiya qilgan birinchi davlat hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hozirga qadar Lanzarote konvensiyasini ratifikatsiya qilmagan. Ammo so'nggi yillarda yurtimizda bola huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2025-yil 24-dekabrda qabul qilingan "2026–2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-256-sonli Farmon bilan tasdiqlangan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini 2026–2027-yillarda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 4-bandida Lanzarote konvensiyasiga qo'shilish masalasi belgilab berilgan (President of the Republic of Uzbekistan, 2025).

O'zbekistonning Lanzarote konvensiyasiga qo'shilishi zo'ravonlikdan, xususan, jinsiy ekspluatatsiya va suiiste'moldan jabrlangan bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishda muhim huquqiy qadam bo'lishi mumkin. Mazkur konvensiya milliy qonunchilikda bolalarni internet orqali ovlash, jinsiy daxlsizlikka tajovuz qilish, jabrlanuvchi bolalarni qayta viktimizatsiyadan himoya qilish va ularga kompleks rehabilitatsiya yordamini ko'rsatish mexanizmlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish, mutaxassislarni xalqaro tajriba asosida tayyorlash imkonini beradi.

Ayni paytda, konvensiyaning implementatsiya qilish bolalarga xavf-xatarlar haqida huquqiy-ma'rifiy ta'lim berish, jabrlanuvchilar uchun maxsus rehabilitatsiya va so'roq infratuzilmasini yaratish, shuningdek, xalqaro monitoring organlari oldida hisobdorlikni ta'minlash kabi amaliy vazifalarni yuzaga keltiradi. Shunga qaramay, O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar nuqtayi nazaridan, Lanzarote konvensiyasiga qo'shilish jabrlangan bolalar manfaatlarini ustuvor qo'yish, ularning huquqiy, psixologik va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishning mantiqiy davomi sifatida baholaniishi mumkin.

Shuningdek, bolalarga nisbatan odil sudlov tizimi zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning institutsional-protsessual mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur mexanizm bolaning odil sudlovga kirish huquqini ta'minlash, uning qayta viktimizatsiyaga uchrashining oldini olish, tergov va sud jarayonida bolaning yoshi, ruhiy holati hamda eng ustun manfaatlarini inobatga olish, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash va rehabilitatsiya choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu yerda biz "bolalarga nisbatan odil sudlov"ni faqat jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlov deb tor ma'noda tushunmaslik kerak. Balki bolaning protsessda jabrlanuvchi bola, guvoh bola, huquqbuzarlik sodir etgan bola, yoki himoyaga muhtoj bola kabi maqomlarda bo'lishini inobatga olgan holda "bolalarga nisbatan odil sudlov"ni keng ma'noda bola manfaatlariga mos, ular uchun do'stona bo'lgan sudlov tizimini tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu tizimning xalqaro asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, BMT tomonidan 1985-yilda voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir minimal standart qoidalar (Pekin qoidalari) qabul qilingan bo'lib, yuvenal yustitsiya sohasidagi dastlabki universal xalqaro standartlardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjat voyaga yetmagan shaxslar bilan bog'liq jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual munosabatlarda jazolashga emas, balki bolaning shaxsiyati, yoshi, ijtimoiy moslashuvi va qayta tarbiyalanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo'llash zarurligini ilgari suradi.

(United Nations General Assembly, 1985). Shu jihatdan Pekin qoidolari yuvenal yustitsiya tizimining insonparvarlik, mutanosiblik, bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlash, sudlov jarayonida ixtisoslashgan yondashuv va reintegratsiyaga yo'naltirilganlik kabi asosiy tamoyillarini shakllantirishda muhim normativ asos vazifasini bajaradi. Unda voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni tashkil etishning umumiy yo'nalishlari, maxsus kafolatlari va protsessual yondashuvlari belgilangan bo'lsa-da, ularning huquqiy maqomi, protsessual huquq va majburiyatlari milliy qonunchilik doirasida yanada aniqroq tartibga solinishi talab etiladi (Miruktamova, 2022).

Respublikamizda bolalarga nisbatan do'stona sudlov tizimini shakllantirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, PF-256-sonli Farmonning 3-bobida bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudyalor korpusini shakllantirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ixtisoslashtirilgan bo'linmalar faoliyatini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish; bolalar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan advokatlar korpusini shakllantirish, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari xodimlarining protsessual harakatlar jarayonida bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha malakasini oshirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Islandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya kabi xorijiy davlatlarda bu tizim bir jumla bilan "Barnaxus" modeli deb nomlanadi. Skandinaviya davlatlari bu bo'yicha samarali namunani ko'rsatib kelishmoqda. Ushbu modelda bola alohida-alohida politsiya, prokuratura, sud, shifokor, psixolog yoki ijtimoiy xizmatga bori-shiga to'g'ri kelmaydi. Aksincha, tergov, sudlov, tibbiy ko'rik, psixologik yordam va ijtimoiy himoya xizmatlari bitta, bola uchun qulay muhitda (bolalar uyi) muvofiqlashtiriladi (Johansson et al., 2017). Bolalarni himoya qilishga yo'naltirilgan ushbu yondashuv va bolalarga nisbatan do'stona sudlov tizimi himoyasiz bolalar zarur yordamni olishlarini ta'minlash yo'lidagi ijobiy qadamlardir. Ushbu model politsiya suhbatlaridan oldin bolalarni axborot almashinuv jarayonlariga jalb qilmaslikni ko'zda tutadi va bu esa bolalarga ma'lumotni oshkor qilishda ta'sir ko'rsatmaslik maqsadini ko'zlaydi. Barnaxusning Finlyandi-

yadagi loyihasi esa asosan barcha bolalar uchun qulay muhitda suhbatlashishni ta'minlash va ularning qo'shimcha yordamga bo'lgan ehtiyojlarini baholashga qaratilgan. Tizim sudga qadar tergov jarayonlarida psixologik ekspertizadan foydalanishga urg'u beradi (Septiani, 2025).

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishda "Barnaxus" modelining ayrim elementlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar bilan ishlashda tergov, sud-tergov harakatlari, tibbiy ko'rik, psixologik yordam va ijtimoiy himoya xizmatlarini yagona, bola uchun xavfsiz va qulay muhitda muvofiqlashtirish bolaning qayta-qayta so'roq qilinishi, ikkilamchi ruhiy jarohatlanishi hamda idoralararo tarqoqlikning oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida "Barnaxus" modelini joriy etish bosqichma-bosqich va milliy huquqiy tizim imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Dastlab ushbu modelni butun respublika miqyosida tatbiq etishdan avval Toshkent shahri yoki Toshkent viloyatida pilot loyiha sifatida sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv 2025-yilgi murojaatlar statistikasi bilan ham asoslanadi. Xususan, Bolalar ombudsmani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida ta'kidlaganidek, 2025-yilda Bolalar ombudsmani nomiga jami 1 934 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, murojaatlarning eng katta qismi Toshkent shahri (470 ta), Surxondaryo viloyati (254 ta) va Toshkent viloyati (236 ta) hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ma'lumotlar ushbu hududlarda bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha institutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. "Barnaxus" modelini joriy etishning birinchi bosqichida, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish, mas'ul organlar o'rtasida hamkorlik mexanizmini belgilash hamda pilot hududda faoliyat yuritadigan ixtisoslashtirilgan markaz konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Ikkinchi bosqichda esa pilot markaz faoliyatini yo'lga qo'yish, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni qabul qilish, ular bilan suhbat o'tkazish, tibbiy ko'rik, psixologik yordam, ijtimoiy himoya va huquqiy maslahat xizmatlarini yagona muhitda muvofiqlashtirish mexanizmlarini sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq. Uchinchi bosqichda,

pilot loyiha natijalari baholanib, samarali deb topilgan mexanizmlarni boshqa hududlarga bosqichma-bosqich tatbiq etish mumkin.

Mazkur jarayonda Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili instituti asosiy mas'ul subyektlar sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni turli idoralarda qayta-qayta so'roq qilish amaliyotini kamaytirish, ularni ikkilamchi viktimizatsiyaga uchrashining oldini olish hamda tergov, tibbiy, psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatish jarayonlarini bola uchun xavfsiz va do'stona muhitda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, olimlarning izlanishlarida ham voyaga yetmaganlar odil sudlovi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, bolalarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni samarali huquqiy himoya vositalari bilan ta'minlash zarurligi asoslab berilgan (Miruktamova, 2021).

Shu bilan birga, xalqaro mexanizmlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning milliy darajada implementatsiya qilinishiga bog'liq. Zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilishda xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali himoya tizimi faqat jinoyat sodir etilganidan keyingi javobgarlik choralaridan iborat bo'lmasligi, balki bolaning huquqiy, psixologik, tibbiy va ijtimoiy ehtiyojlarini kompleks qamrab olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bolalarni himoya qilish sohasida muhim huquqiy asos yaratdi. Mazkur qonunda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarning hamkorligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki nazarda tutilgan. Shu bilan birga, qonunni amaliyotga samarali tatbiq etish uchun xalqaro tajribada shakllangan maxsus institutsional mexanizmlarni milliy tizimga moslashtirish zarur. Xususan, Islandiyada shakllangan va keyinchalik boshqa Skandinaviya davlatlarida keng qo'llanilgan "Barnaxus" modeli bolaga nisbatan zo'ravonlik

holatlarida jinoyat tergov, bolani ijtimoiy himoya qilish, tibbiy ko'rik va psixologik yordamni "bir tom ostida" birlashtiradi. Yevropa Kengashi ushbu modelni bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikka javob berishning yetakchi yevropacha modeli sifatida baholab, uning parallel jinoiy va ijtimoiy tekshiruvlarni muvofiqlashtirishi hamda bolaning ikkilamchi viktimizatsiyasini kamaytirishini ta'kidlaydi (Council of Europe, 2023). Shuningdek, AQSHdagi Bolalar advokatlik markazlari (Children's Advocacy Centers) tizimi ham O'zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, Milliy bolalar Alyansi ma'lumotlariga ko'ra, bunday markazlar barcha 50 shtatda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlariga muvofiqlashtirilgan va dalillarga asoslangan javob choralarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega (National Children's Alliance, 2018).

Xulosa

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlarini himoya qilish masalasi zamonaviy xalqaro huquqning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u faqat huquqbuzarni javobgarlikka tortish bilan cheklanmaydi. Aksincha, mazkur soha bolaning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlarini kompleks himoya qilishni talab etadi. Shu bois zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilish tizimi jazo-lovchi yondashuvdan ko'ra ko'proq profilaktik, tiklovchi, reabilitatsion va bolaning eng ustun manfaatlariga yo'naltirilgan mexanizmlarga asoslanishi lozim. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Lanzarote konvensiyasi, Pekin qoidolari va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qilishning umumiy normativ asoslarini shakllantiradi. Ushbu hujjatlarda mustahkamlangan bolaning eng ustun manfaatlari, bolaning fikrini inobatga olish, qayta viktimizatsiyaning oldini olish, bolaga do'stona sudlovni ta'minlash, reabilitatsiya va reintegratsiya choralarini ko'rish kabi prinsiplar milliy qonunchilik va amaliyot uchun muhim yo'nalish vazifasini bajaradi. Xususan, zo'ravonlikka uchragan bola tergov va sud jarayonlarida faqat dalil manbai sifatida emas, balki alohida himoyaga, psixologik qo'llab-quvvatlashga va ijtimoiy tiklanishga muhtoj huquq subyekti sifatida e'tirof etilishi zarur.

Xorijiy tajriba, xususan Islandiya va boshqa Skandinaviya davlatlarida shakllangan “Barnaxus” modeli, shuningdek, AQSH va Kanada amaliyotidagi bolalar advokatlik markazlari zo’ravlilikdan jabrlangan bolalarni himoya qilishda idoralararo hamkorlikning samarali shakli sifatida tanilgan. Mazkur modellar tergov, tibbiy ko’rik, psixologik yordam, ijtimoiy himoya va huquqiy maslahat xizmatlarini yagona – bola uchun xavfsiz va qulay muhitda birlashtirishi bilan ahamiyatlidir. O’zbekiston sharoitida ushbu tajribani to’liq ko’chirib olish emas, balki milliy huquqiy tizim, mavjud institutsional imkoniyatlar va ijtimoiy-madaniy sharoitlardan kelib chiqib moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarning amaliy ijrosini ta’minlashda mas’ul davlat organlari va institutlarning vazifalarini aniq belgilash muhim ahamiyatga

ega. Xususan, zo’ravlilikdan jabrlangan bolalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, reabilitatsiya va reintegratsiya qilishda Ijtimoiy himoya milliy agentligi, profilaktik va ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishda Yoshlar ishlari agentligi faoliyati muhim o’rin tutadi. Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda Adliya vazirligi, jinoyat-protsessual himoya choralari amalga oshirishda ichki ishlar, prokuratura va sud organlari, bolalar uchun xavfsiz ta’lim hamda tibbiy-psixologik yordam muhitini yaratishda esa ta’lim va sog’liqni saqlash tizimi organlari o’rtasidagi hamkorlik kuchaytirilishi zarur. Ushbu jarayonda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo’yicha vakili instituti bolalar huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish, murojaatlarni tahlil qilish va davlat organlari faoliyatini inson huquqlari mezonlari asosida baholashda muhim institutsional kafolat sifatida namoyon bo’ladi.

REFERENCES

- Barnahus. (2025, November 6). *Foundational documents for the Barnahus Network*. PROMIS. <https://barnahus.eu/2025/11/06/foundational-documents-for-the-barnahus-network/>
- Council of Europe. (2007). *Council of Europe Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse (CETS No. 201)*. <https://www.coe.int/en/web/children/lanzarote-convention>
- Council of Europe. (2023). *Barnahus: A European journey - Findings of a mapping study on multidisciplinary and interagency child-friendly justice models responding to violence against children*. <https://www.coe.int/en/web/children/barnahus-mapping-launch-event>
- Inter-American Commission on Human Rights. (2008, October 29). The rights of the child in the Inter-American human rights system (2nd ed., OEA/Ser.L/V/II.133, Doc. 34). <https://cidh.oas.org/countryrep/infancia2eng/infancia2toc.eng.htm> (https://cidh.oas.org/countryrep/infancia2eng/infancia2toc.eng.htm?utm_source=chatgpt.com)
- Johansson, S., Stefansen, K., Bakketeig, E., & Kaldal, A. (Eds.). (2017). *Collaborating against child abuse: Exploring the Nordic Barnahus model*. Palgrave Macmillan. https://www.researchgate.net/publication/321501731_Collaborating_Against_Child_Abuse_Exploring_the_Nordic_Barnahus_Model
- Miruktamova, F. L. (2021). *Voyaga yetmaganlar odil sudlovining xalqaro standartlari* [International standards of juvenile justice]. (Abstract of candidate dissertation). Tashkent State University of Law.
- Miruktamova, F. L. (2022). *Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov: Milliy qonunchilik va uni takomillashtirishning huquqiy masalalari* [Juvenile Justice: National Legislation and Legal Issues for Its Improvement]. *Review of Law Sciences*, (1). <https://justy.uz/books/voyaga-yetmaganlarga-nisbatan-odil-sudlov-milliy-qonunchilik-va-uni-takomillashtirishning-huquqiy-masalalari/>
- National Children’s Alliance. (2018). *How the CAC model works*. <https://www.nationalchildrensalliance.org/cac-model/>
- Organization of African Unity. (1990, July 11). *African Charter on the Rights and Welfare of the Child* (OAU Doc. CAB/LEG/24.9/49). <https://www.acerwc.africa/sites/default/files/2022-06/African%20Charter%20on%20the%20Rights%20and%20Welf> (https://www.acerwc.africa/sites/default/files/2022-06/African%20Charter%20on%20the%20Rights%20and%20Welfare%20of%20the%20Child_ENG_5.pdf?utm_source=chatgpt.com)
- Petersson, H., Skantz Åberg, E., Björklund, C., Lager, K., Wank, A.-C., & Williams, P. (2025). Structure-driven and process-driven conceptualisations of “the best interests of the child” principle in early childhood education

and care: A scoping review. *The International Journal of Children's Rights*, 33(4), 952–985. <https://doi.org/10.1163/15718182-33040007>

President of the Republic of Uzbekistan. (2025, December 24). *On approval of the strategy for protecting children from all forms of violence for 2026 — 2030* (Decree No. PD-256). <https://lex.uz/uz/docs/-7938806>

Representative of the Oliy Majlis on Children's Rights. (2025). *2025-yilning dastlabki 6 oyi davomida Bolalar ombudsmanni amalga oshirgan ishlari to'g'risida hisobot* [Report on the work of the Children's Ombudsman for the first 6 months of 2025]. Children's Representative Portal. <https://bolalarvakili.uz/uz/publications/reports/177>

Republic of Uzbekistan. (2024, November 14). *On the protection of children from all forms of violence* (Law No. LRU-996). <https://lex.uz/docs/-7219502>

Septiani, N. A. (2025). Collaborating against child abuse. *Journal of Islamic Studies and Education*, 4(1), 39–44.

Tobin, J. (Ed.). (2019). *The UN Convention on the Rights of the Child: A commentary*. Oxford University Press.

United Nations General Assembly. (1979, December 18). Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (A/RES/34/180). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (1984, December 10). Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment (A/RES/39/46). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-against-torture-and-other-cruel-inhuman-or-degrading> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-against-torture-and-other-cruel-inhuman-or-degrading?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (1989, November 20). Convention on the Rights of the Child (A/RES/44/25). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (2000a, May 25). Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on the involvement of children in armed conflict (A/RES/54/263). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-involvement-children> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-involvement-children?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (2000b, May 25). Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on the sale of children, child prostitution and child pornography (A/RES/54/263). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-sale-children-child> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-sale-children-child?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (2006, December 13). Convention on the Rights of Persons with Disabilities (A/RES/61/106). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities?utm_source=chatgpt.com)

United Nations General Assembly. (2011, December 19). Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on a communications procedure (A/RES/66/138). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-communications> (https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-convention-rights-child-communications?utm_source=chatgpt.com) Volkova, E. N., & Balashova, T. N. (2004). *Zashchita detey ot nasiliya i zhestokogo obrashcheniya* [Protecting children from violence and mistreatment]. Nizhniy Novgorod State University Publ.

World Health Organization. (2026, May 7). *Violence against children*. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-children>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil maxsus son

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI).